

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA SO'Z BIRIKMALARINING O'RGANILISHI

Nodira Maxmadmurodova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22724317>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining o'rganilish tarixi, ularning sintaktik birlik sifatida shakllanish bosqichlari hamda har bir davrga oid ilmiy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, darsliklardagi so'z birikmalariga berilgan ta'riflar, ularning gap va turg'un birikmalardan farqli va o'xshash jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar:

sintaksis, so'z birikmasi, tobe-hokim munosabat, til birligi, gap, qo'shma so'z, sintagma, barqaror birikma.

Ma'lumki, til – ijtimoiy hodisa sanalib, jamiyatda turli xil vazifalarni bajarib keladi. Eng asosiy vazifalaridan biri – bu kommunikativ vazifasidir. Tilning ana shu bosh ijtimoiy vazifasi tilshunoslikning sintaksis bo'limi bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki tilning voqelanish maydoni sintaksis bo'limida o'rganiladi. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, til sathlari birliklari orasida sintaktik hodisalarni alohida ajratish va o'rganish boshqa sath birliklari tadqiqidan ancha keyin boshlangan.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda ham sintaksis muammolari 2-darajaga qo'yilgan. Yevropa turkiyshunoslarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tavsifiy ishlarida ham sintaksis bo'yicha qilingan ishning dastlabki sifatida Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba. 2-kitob – Nahv" asarini tilga olishimiz mumkin. Fitrat o'zbek sintaksisi talqiniga so'z uyushmasi (so'z birikmasi, so'z qo'shumi), gap, uning asosiy qismlarini atovchi kesim, ega, to'ldirgich (gap tarkibidagi ega va kesimdan boshqa bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar), kirish so'z, turush belgilari (tinish belgilari) kabi o'nlab atama va tushunchalarni olib kirdi. Olim ilk qadamdanoq turkiy tillar (jumladan, o'zbek tili) sintaksisining G'arbiy Yevropa tillari sintaktik qurilishidan tub farqlarini:

- kesimning gap qurilishida alohida mavqe egallashini – "so'z qo'shumini gapga aylantiradigan" qism ekanligini;
- gap va so'z birikmalari tarkibida tobe-hokim tartibi mutlaqligini ilg'ay va sharhlay oldi. O'zbek tilshunosligi Fitratning bu xizmatini (olim yasagan kesim atamasiday) hech qachon unutmaydi.

Fitratning bu asari o'zbek tili sintaksisi bo'yicha 1940-yilgacha – tilshunosligimizning A.G'ulomov taraqqiyoti davrigacha – amalda bo'lgan va turli mualliflar tomonidan yaratilgan keyingi darsliklarning tuzilishi, mazmuni va atamalariga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek tilshunosligida so'z birikmasi sintaksisi 1955-yilgacha maxsus tekshirish obyekti sifatida qaralmadi. Faqat prof. A.G'ulomov o'zining sintaksisga bag'ishlangan ishlarida bu masalaga alohida ahamiyat berdi. Shundan keyin ma'lum bir so'z birikmalari turlari haqida dastlabki ilmiy tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Ularda fe'l va ot so'z birikmalari alohida tekshirish obyekti bo'ldi. Bundan keyingi davrlarda so'z birikmasi sintaksisiga bag'ishlangan ko'pgina ishlar maydonga keldi va akadem grammatikalarda, oliygohlar uchun chiqarilgan maxsus darsliklarda so'z birikmasi sintaksisi maxsus soha sifatida izohlana boshladi.

O'zbek tilshunosligida so'z birikmasi masalasi G'.A.Abdurahmonov, F.Abdullayev, Sh.Shukurov, X.Nazarova, Q.Karimov, A.N.Nurmonov, V.V.Reshetov, A.Safayev, T.Rustamov, A.Hojayev, K.Sharipov, A.G'ulomov, M.A.Asqarova, U.Tursunov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan. So'z birikmalari taraqqiyoti masalalari F.A.Abdullayeva, G'.Karimov, A.Ahmedov, S.G'oyibov maqola va kitoblarida umumiy tarzda o'rganilgan.

O'zbek tili akademgrammatikasida so'z birikmalarining predikativli turi bo'lishi mumkin emas, so'z birikmalari unsurlari faqat ergash bog'lanishli nopredikativ xarakterda bo'lishi lozim, degan xulosaga kelingan.

O'zbek tilida so'z birikmasi, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gap qurilishi talqini bilan bog'liq bo'lgan masalalar F.Abdullayev, G'.A.Abdurahmonov, M.A.Asqarova, F.Kamolov, Sh.Rahmatullayev, A.G'ulomov singari olimlar ishlarida va rahbarligida amalga oshirilgan J.Omonturdiyev, I.Toshaliyev, B.To'ychiboyev, D.Muhamedova, E.Shodmonov, H.Abdullayev kabi olimlar tadqiqotlarida muhokama etildi, muayyanlashtirildi.

An'anaviy tilshunoslik davrida tilshunoslarimiz rus tilshunosligiga tayangan holda ish olib bordilar. Bu davrda yaratilgan darsliklardagi ilmiy qarashlarga rus tilshunoslaridan A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov, A.N.Kononov kabi olimlarning asarlari ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asos bo'ldi. Xususan, tilshunoslarimiz A.G'ulomov, M.Asqarovalar tomonidan tayyorlangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" nomli darsligida so'z birikmasi masalasi atroflicha yoritildi. Ushbu darslik kitobda so'z birikmasining gap, qo'shma so'z, sintagma va barqaror birikmadan farqli ekanligi hamda sintaksisda so'zlarning bog'lanishi, birikmalar tuzilish tasviri yoritilib, so'zlarning hamma tipdagi qo'shilishi sintaksisda tekshirilmasligi aytib o'tiladi. Ammo shu o'rinda qizil gul birikmasi chinnigul, atirgul, sapsargul kabi qo'shma so'zlar qatoriga qo'shib yuborilgan. Shuningdek, so'z birikmasi gapni qismlarga ajratishda bo'linib chiqadigan butunlik, deya ta'riflanib, so'z birikmasi bo'yicha quyidagi fikrlar bildiriladi. Nutqda, gapda so'zlar ma'lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlik tashkil qilgan har bir kompleks so'z birikmasi sanaladi. Nutqdagi har qanday butunlik (grammatik va semantik butunlik) bir so'z birikmasi bo'lavermaydi, bu bog'lanishning boshqacha ko'rinishlari ham bor. Shu o'rinda so'z birikmasini sintagma bilan taqqoslab, farqli jihatlari yoritib o'tilgan.

A.G'ulomov, M.Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida so'z birikmalari mustaqil sintaktik birlik sifatida talqin qilinib, ularning nominativ funksiyasi, bu jihatdan so'zga yaqin turishi, erkin va turg'un birikmalarining o'zaro farqlari kabi masalalar ilmiy asoslangan holda atroflicha keng yoritilgan. Bundan tashqari, garchi so'z birikmalari jumlasiga kiritilmagan bo'lsa-da, so'zlarning teng bog'lanishi usullari juda mukammal tahlil qilingan.

Ma'lumki, so'z birikmasi fikriy va ohang tugalligiga ega emasligi, shaxs-son, zamon, mayl kabilarni ko'rsata olmasligi, umuman, kishilarning o'zaro aloqa-aralashuvlarini yo'lga qo'yish xususiyatiga ega emasligi bilan gapdan farq qiladi. Buning ustiga so'z birikmasi gapning qurilish materiali hamdir. Bir-biridan tubdan farq qiluvchi mana shu ikki kategoriya an'anaviy tilshunoslikda bir-biri bilan ochiqdan-ochiq qorishtiriladi. Jumladan, ikkinchi darajali bo'lak va kesim munosabatidan hosil bo'lgan qurilma so'zlar birikmasi deyiladi: *Toqqqa chiqdik. Tabiatni kuzatdik*. Keltirilgan misollar kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'lib, nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi va yoyiq sodda gap jumlasiga kiradi. Bu misollar (*Toqqqa chiqdik. Tabiatni kuzatdik*) faqat kesimdan iborat bo'lsa ham, gapdir. Qurilma mana shu xususiyatlari hisobga olinmasdan boshqaruv yo'li bilan tuzilgan so'z birikmasi deyiladi. Bu masalalar o'zbek tili formal sintaksisi talqinidan chetda qoldi va o'sha davrdagi muammolardan biriga aylandi. Substansial tilshunoslikka o'tilishi bilan esa bu masalaga boshqacha yondashila boshlandi.

Shuningdek, prof. A.Sh.G'ulomov so'zlarning aloqaga kirishishini ifodalash uchun "So'z qo'shilmasi" atamasini qo'llashni aytib o'tgan bo'lib, bu bilan birikmalarni keng doirada o'rganish bo'yicha o'z fikrini aytib o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

Birikmalarni keng doirada tahlil qilish masalasi haqida M.K.Sharipovning "Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi" nomli kitobida atroflicha fikr bildirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu kitobda birikmaga alohida ta'rif berilgan holda birikma hamda so'z

birikmalari masalasiga to'xtalinadi. Shuningdek, ushbu kitobda birikma hamda so'z birikmasi tushunchalariga to'xtalib o'tiladi.

Ko'rishimiz mumkinki, an'anaviy tilshunoslikda tilshunoslarimiz rus tilshunosligi nazariyalariga asoslangan holda birikma masalasini talqin qilganlar.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab tilga milliy ruh bilan qarala boshlanishi bilan bir qator fanlarga yangi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlar kirib keldi. Xususan, o'zbek tilshunosligiga sistem-struktur tadqiqot metodlari kirib kela boshladi va tilshunoslikning yangi yo'nalishi sistem-struktur tilshunoslik shakllana bordi. Natijada o'zbek tilshunosligining yangi atamaları paydo bo'lib, lingvistik atamalarining boyishiga sabab bo'ldi.

Keyinchalik sistem-struktur tilshunoslikning turli maktab va yo'nalishlari tahlil usullarida o'zbek tili qurilishini tadqiq etish ommalasha bordi. Jumladan, o'zbek tilining sistem tahlili A.Berdialiyev, O.Bozorov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, R.Sayfullayeva kabi yirik tilshunoslar hamda ularning izdoshlari – M.Abuzalova, Sh.Akramov, B.Mengliyev, I.Madrahimov, D.Nabiyeva, G.Ne'matova, L.Ne'matova, Sh.Orifjonova, L.Raupova, M.Saidova, Sh.Shahobiddinova, Z.Yunusova, B.Qilichev, M.Qurbonovalarning ishlarida ko'zga tashlanadi.

.Substansial tilshunoslikda nutqiy so'z birikmalari uchun quyidagi belgilar asos qilib olinadi:

So'z birikmasi bu to'rt belgisining har biri bilan o'ziga yondosh hodisalarga o'xshashi va bir vaqtning o'zida farqlanishi aytib o'tiladi. Masalan, birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topganligi bilan so'zdan farq qilsa, tushuncha ifodalashi bilan o'xshashlik kasb etadi. Gap birdan ortiq mustaqil so'zning ma'noviy va grammatik jihatdan tobelanishi asosida ham vujudga kelishi, lekin fikr ifodalashi bilan farqlanishi ta'kidlab o'tilib, so'z birikmasining so'zdan, iboradan, gapdan, sintagmadan o'zaro farqli hamda o'xsha sh tomonlari ilmiy dalillar asosida isbotlab beriladi.

a)birdan ortiq mustaqil so'z;

b)a'zolarining ma'noviy grammatik jihatdan mosligi;

d)tobelik;

e)tushuncha ifodalash.

N.Mahmudov, A.Nurmonovlar so'z birikmasi ma'lum gap bo'laklarining kengayishidan hosil bo'lishini to'g'ri e'tirof etdilar. Har qanday so'z birikmasi so'zning kengayish modelining nutq bosqichida yuzaga chiqish imkoniyatlaridan biri sanaladi. Bu o'rinda so'z birikmalari xususida talay yangi fikr berib o'tdilar, ammo predikativlik hodisasi faqat gapga xosligi ta'kidlanadi.

A.Berdialiyev ham so'z birikmalarini nominativ-nopredikativ birlik tarzida o'rganadi.

Aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida so'z birikmalari tabiatini o'rganishga rus tilshunosligining ta'siri seziladi. Shu bois bunda so'z birikmasiga "mustaqil so'zlarning birikuv", "tobe bog'lanish" kabi talablar shart qilib qo'yiladi.

Umuman olganda, so'z birikmasi muammosi ancha ishlangan soha hisoblansa-da, ammo bu barcha masalalar ochiq-oydin yoritilgan, degani emas. Mavjud adabiyotlarda tobe aloqaga kirishuvchi birliklar tor doirada, bir tizimga birlashtirilmagan holatda tadqiq qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Birikmaga oid masalalarga turlicha yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin tobe aloqaga kirishuvchi birliklarning har biri to'g'risida atroflicha fikr bildirilib, aniq ilmiy xulosalar keltirilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik merosi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 1993; Fitrat – tilshunos – T., "Universitet", 1996;
2. Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi (yoki gapning sistem-struktur talqinlarida muntazamlilik va mutanosiblik ehtiyoji) // O'zbek tili va adabiyoti. 2009, 1-son.
3. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. – T., "Mumtoz so'z", 2013.
4. G'ulomov A.G., Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek tili. – T., 1966
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili II. – T., 1966, 15-38-betlar.
6. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili – T., 1965.
7. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis – Toshkent, 1987. 11-28-betlar.

8. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 b.
9. Berdialiyev A. O'zbek tili so'z birikmalari sintaksisi – T., 1990, 33-bet.

Annotation.

The article highlights the history of studying word combinations in Uzbek linguistics, the stages of their formation as a syntactic unit and scientific views related to each period. In addition, the definitions given to word combinations in textbooks, as well as their similarities and differences compared to sentences and set phrases are presented.

Key words:

syntax, word combination, subordinate-superordinate relationship, language unit, sentence, compound word, syntagm, stable combination.